

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING HAYOTIMZIDAGI O`RNI. IT MUTAXASISI
BOLISH BUGUNNING ENG USTVOR YO'NALISHI****Mallaboyeva Shodiyaxon Sodiqjon qizi***Farg'ona viloyati Marg'ilon shaxar 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyala haqida, IT sohasining rivojlanib borayotganligi haqida, internetni hayotimizda tutgan o`rni haqida, IT parklar haqida, IT sohasi juda ko`p yoshlarimizning o`ziga jalb qilayotganligi haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *IT, IT park, yoshlar, informatika, internet, texnologiya, raqamli texnologiya, axborot.*

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni soliq ma'murchiligida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to soliqlarni to'lash va ma'lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangilikliklar kirityapti.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-taxnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi. Darhaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish—inson hayotining barcha jabhalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan bog'lik ob'ektiv jarayon hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy extiyojlarning qondirilishiga, iqtisodning o`shishi hamda fan-texnika taraqqiyotining jadallashishiga hizmat qiladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyacini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi

Insoniyat tarixida insoniyat jamiyati o'z taraqqiyotida izchil bosib o'tgan bir necha bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu bosqichlar jamiyatning mavjudligini va inson foydalanadigan va amalga oshirishda katta rol o'ynaydigan resurslarning turini ta'minlaydigan asosiy yo'llari bilan farq qiladi. Ushbu bosqichlarga quyidagilar kiradi: yig'ish va ov qilish, qishloq xo'jaligi va sanoat bosqichlari. Bizning davrimiz dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari jamiyat rivojlanishining sanoat bosqichining so'nggi bosqichida. Ularda keyingi

bosqichga o'tish amalga oshiriladi, bu "axborot" deb nomlanadi. Jamiyat infratuzilmasi axborot to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish usullari va vositalari bilan shakllanadi. Axborot strategik manbaga aylanadi. Shu sababli, yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab sivilizatsiyalashgan dunyoda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy belgilovchi omili "narsalar iqtisodiyoti" dan "bilim iqtisodiyoti" ga o'tish bo'ldi; dunyo hamjamiyatining deyarli barcha muammolarini hal qilishda ma'lumotlarning ahamiyati va rolini oshirish. Bu ilmiy-texnika inqilobi asta-sekin intellektual va axborotga aylanib borayotganining ishonchli dalilidir, axborot nafaqat aloqa ob'yekti, balki foydali tovar, ijtimoiy ishlab chiqarishni, fan, madaniyatni tashkil etish va boshqarish uchun so'zsiz va samarali zamonaviy vositaga aylanib bormoqda. Informatika, kompyuter texnologiyalari, tezkor bosib chiqarish va telekommunikatsiyalar sohasidagi zamonaviy yutuqlar yangi turdagi yuqori texnologiyalarni, ya'ni axborot texnologiyalarini vujudga keltirdi.

Informatika, kompyuter texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalari yangi bilim va ishlab chiqarish sohasi - axborot sanoatining paydo bo'lishi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Axborotni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash texnologiyasi sifatida dunyoda axborot xizmatlari, kompyuter ishlab chiqarish va kompyuterlashtirish sohasi muvaffaqiyatli rivojlanmoqda; telekommunikatsiya sohasidagi sanoat va texnologiyalar misli ko'rilmagan ko'lamga va sifatli sakrashga erishdi - millionlab iste'molchilarni qamrab oladigan va axborotni tashish va o'z iste'molchilarini bir-biri bilan bog'laydigan keng imkoniyatlarni ifodalovchi eng oddiy aloqa liniyasidan to kosmosgacha. Ushbu butun majmua (iste'molchi o'z vazifalari, informatika, axborot ta'minotining barcha texnik vositalari, axborot texnologiyalari va axborot xizmatlari sohasi va boshqalar bilan) jamiyatni axborotlashtirishni amalga oshirish uchun infratuzilma va axborot makonini tashkil etadi.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ta'lim berish va ta'lim olish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki aynan sifatli ta'lim biz yashab turgan dunyoni turli muammolardan qutqarishda muhim rol o'ynashi endi xech kimga sir emas. Shu tufayli davlatlar ta'lim sohasiga katta mablag` ajratmoqdalar. Bu borada mamlakatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shunday bo'lishiga qaramay ta'lim tizimimizda hali o'z yechimini kutayotgan qator masalalar borki ularni bartaraf etmasdan zamonaviy sifatli ta'lim haqida gapirib bo'lmaydi. Xususan axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda, fikrimizcha, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jalb etmasdan ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash mumkin emas. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usulda ma'ruza shaklida olib borganmiz. Bu ham yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan. Bu o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. O'quvchilar turli qo'shimcha materiallarni o'zlashtirish uchun ham yirik xajmdagi adabiyotlar va katta qappaygan sumkalarini ko'tarib yurishga majbur bo'lgan. Endilikda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Bu esa ta'lim oluvchiga zamonaviy qulayliklar yaratib ta'lim olishni osonlashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, notebook, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi.

Bugungi pandemiya sharoiti ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta'lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta'limga o'tishning boshqa afzalliklari to'g'risida ham fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinlidir. O'quvchilar xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi; - o'quvchilar mutaxassis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi; - internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi; - ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi; - vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi; - "raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'ladi. Bugun mamlakatimizning barcha xududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o'z navbatida raqamli ta'lim tizimiga o'tishga to'sqinlik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa xukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatnomalarida ayni shu sohada ko'rsatmalar berilgani biz fikr yuritayotgan sohada sezilarli yuksalish yuz berishiga ishoniradi.

Agar siz e'tibor berayotgan bo'lsangiz so'nggi paytlarda yurtimizda dasturchilik sohasiga doir ko'plab ko'zga ko'ringan ajoyib yangiliklar, loyihalar va tanlovlar ishlab chiqilmoqda. Dasturchilik bu "kelajak" kasbi ekanligini deyarli barchamiz bilib oldik. Biz axir axborot texnologiyalari asrida yashab kelmoqdamiz.

Yurtimizning ko'pgina viloyatlarida IT park tashkil e'tilib kelinmoqda. Ma'lumki ko'pchilik IT park haqidagi tushunchaga ega emaslar. Chunki axborot texnologiyalari sohasidagi bu kabi ibora biz kabi barcha yoshlar, jumladan tengdoshlarim uchun ham ajoyib yangilik bo'ldi. Men o'ylaymanki, bundan keyin IT park yurtimizning hamma joylarida tashkil etiladi va uning mohiyati yanada takomillashib borgani sari IT sohasiga qiziquvchilar uchun keng ma'lumotlar eshigini ochadi !!! Shuningdek, IT park - dasturlashga qiziquvchilar va bu soha vakillariga juda ham katta imkoniyat bera oladi deb ayta olaman

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Oydina, A. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYA TERMINOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI. *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA*, 1(2), 96-99.
2. Oydina, Abdulboqiyeva. "AXBOROT TEXNOLOGIYA TERMINOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI." *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA* 1.2 (2022): 96-99.
3. Rahmatova F. M. et al. Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish //Science and education. - 2021. - T. 2. - №. 11. - C. 678-686.
4. Alimov R. Axborot tizimlari //Архив научных исследований